

**Barno MAMATKARIMOVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail:barno\_xabibullayevna@mail.ru*

*Tel: (94)9227973*

*PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida*

## PRIORITY DIRECTIONS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL VOCABULARY OF CORRESPONDENCE STUDENTS

Annotation

This article examines the problem of motivating students to study a foreign language, in particular, English, in working with students of correspondence studies in the field of engineering sciences, information about regulatory documents on correspondence education. The work that our country is doing in the field of education today is an opportunity for our people.

**Keywords:** correspondence education, engineer, motivation, regulatory document, priority direction, law, decision, decree, approach.

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ СТУДЕНТОВ ЗАОЧНОЙ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема мотивации студентов к изучению иностранного языка, в частности, английского языка, в работе со студентами заочного обучения в области инженерных наук, сведения о нормативных документах по заочному образованию. Работа, которую сегодня проводит наша страна в сфере образования, – это возможность для нашего народа.

**Ключевые слова:** заочная форма обучения, инженер, мотивация, нормативный документ, приоритетное направление, закон, решение, указ, подход.

## SIRTQI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING PROFESSIONAL LEKSIKASINI RIVOJLANTIRISHDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada muhandis sohasidagi ya'ni sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari bilan ishlashda talabalarning chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi muammosi, sirtqi ta'lim yo'nalishi bo'yicha me'yoriy xujjatlar to'g'risida ma'lumotlar ko'rib chiqiladi. Xozirgi kundagi davlatimiz tomonidan ta'lim olish uchun olib borilayotgan ishlar xalqimiz uchun imkoniyatdir.

**Kalit so'zlar:** sirtqi ta'lim, muhandis, motivatsiya, me'yoriy xujjat, ustuvor yo'nalish, qonun, qaror, farmon, yondashuv.

**Kirish.** Ta'lim har bir inson rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning barcha sohalarida maqsadlarga erishish uchun zarurdir. Ish beruvchilar o'z xodimlarida yuqori malakali ishchilarni ko'rishni talab etishadi. Zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy talabi - olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishdir. SHuning uchun ta'lim jarayonini shunday tashkil etish zarurki, ta'lim oluvchilar nafaqat nazariyani o'zlashtiribgina qolmay, balki egallagan bilimlarini kasb-hunar bo'yicha ham muvaffaqiyatli qo'llay olishidir. SHu maqsadda ta'lim muhitiga amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim joriy etilib, uning asosini faoliyat yondashuvi tashkil etadi. Oliy ta'lim muassasalari va soha yo'nalishlari tarixini, ustozlar tahsil olgan va ular tomonidan asos solingan davrlarga bog'lash masalasini keng yoritmoqda. Bu ishni tiklash barobarida, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarimizni o'z sohasiga, kasbiga qiziqtirish va ularni ilmparvarlik ruhida tarbiyalashga, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlari xalq ta'limining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamuljam yondashishni taqozo qilmoqda» deb ta'kidlagan edilar [1].

Qayd etilgan talablarni bajarish, o'z mutaxassisligi doirasida keng ma'lumotga ega bo'lish, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'la olish bugungi kunda chet tillarni mukammal egallashni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti M.SH. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi «Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib yangi ta'lim mazmuni, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligini ta'kidlagan[2]. Xususan, respublikamizda yoshlarning xorijiy tillarni mukammal egallashlari, turli yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlarni aslyatdan o'qib o'zlashtirish, tili o'rganilayotgan mamlakat sohiblari bilan erkin muloqot yurita olish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi.

Mana shunday tarixga ega bo'lgan kasblardan biri bu-muhandis kasbi bo'lib, bu yo'nalish kasblariga tayyorlovchi bilim yurtlari yurtimizning barcha qismlarida mavjuddir. O'zbekiston Respublikasida texnika ta'limi uchun texnik soha vakillarini tayyorlash bo'yicha eng birinchi 1972 yilda Buxoro engil sanoat va oziq-ovqat texnologiya institutida boshlangan. Hozirgi kunda esa eng yirik ishlab chiqarish korxonalari Navoiy va Toshkent viloyatlarida joylashgan. Navoiy viloyatidagi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamda Toshkent davlat texnika universitetlari muhandis soha vakillarini etishtirishda oliy o'rinlarni egallab keladi. Dastlabki o'qish muddati 5 yil qilib belgilangan edi, keyinchalik 4 yil bakalavr, 3 yil maxsus sirtqi ta'lim, 2 yil magistratura va 5 yil sirtqi ta'lim bo'yicha belgilandi. Keyinchalik bu ta'limni rivojlantirish uchun ko'plab qonun va qarorlar ishlab chiqildi. Maxsus sirtqi ta'limda asosan o'z kasbining egasi, ishini puxta egallagan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan talabalar tashkil etadi.

Davlatimizning birinchi prezidenti Islom Karimovning 1999 yil 14 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 14-sessiyasidagi so'zlagan nutqida qo'yilgan vazifalar borasida barcha oliy ta'lim muassasalarida «Kasbiy ta'lim» yo'nalishi bo'yicha muhandis soha vakillarini tayyorlash yo'lga qo'yildi. Muhandis soha vakillarini tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri pedagogik va texnik tayyorgarliklarining aloqasini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. YUqoridagi rivojlanish tarixiga nazar solsangiz asosan ishchi kadr tayyorlash jarayonini e'tiborga olingan bo'lib, kasb-hunar kollejlari va texnika oliy

o'quv yurtlarida etuk mutaxassislarini tayyorlash ko'zda tutilgan. Hozirgi kunga kelib ko'plab zamon talabiga mos oliy o'quv yurtlarida soha vakillari tayyorlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora –tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmoni asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus, oliy professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratildi va oliy ta'lim tizimi oldiga bir qancha vazifalar berildi. Mazkur qaror va farmonlar ijrosini ta'minlashda texnik soha vakillarining ingliz tilini tashqi aloqalardagi va mamlakatimizdagi ahamiyati yuqori. Bunda:

mahalliy ishlab chiqarish sonaotini rivojlantirish, jahon bozoriga kirib borishidagi ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarish, industrial zonalarini ko'proq o'rganib chiqish;

xorijiy investorlar bilan aloqalarni kuchaytirish va investitsiyalarni olib kirishni kengaytirish;

laboratoriya jihozlari va anjomlaridan foydalanish yo'riqnoma ko'rsatmalaridan foydalana olish kabi vaziyatlar qo'yildi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida belgilangan me'yoriy xujjatlarni amalda tadbir etishda biz chet tili o'qituvchilari oldida jiddiy ma'suliyatni bajarishga taqozo etadi. SHuning uchun nomutaxassis bo'lgan sirtqi ta'lim yo'nalishidagi talabalarga chet tilini o'qitishda kuchli motivatsiya berish orqali etuk mutaxassis tayyorlashga undaydi. Sirtqi ta'lim yo'nalishi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 930-son qaroriga asosan qayta tashkil etildi. Bu qaror oliy ma'lumotga ega bo'lmagan tajribali turli soha vakillariga juda katta imkoniyat bo'ldi. Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3153-son hamda «Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida» 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3183-son qarorlari asosida oliy ta'lim muassasasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni (keyingi o'rinlarda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim deb ataladi) tashkil etish tartibini belgilaydi. Oliy ta'lim muassasalarida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalariga muvofiq tashkil etiladi[3]. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim quyidagi shakllarda olib boriladi: sirtqi shakl, maxsus sirtqi shakl, ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot berishning sirtqi shakli. Lekin xozirgi qonun bo'yicha maxsus sirtqi shakl tugatilgan bo'lib, 5 yillik sirtqi ta'lim shakli mavjuddir. Sirtqi shaklda — umumiy o'rta (10-11-sinflar negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti to'g'risidagi tegishli hujjatga ega bo'lgan va test sinovlaridan (kirish imtihonlaridan) muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa talaba bo'lish imkoniyati mavjud[4].

Muhandis sohasidagi ya'ni sirtqi ta'lim yo'nalishi talabalari bilan ishlashda talabalarining chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi muammosiga katta e'tibor berish kerak[5]. CHet tilini o'rganish uchun ularga ko'p kuch, vaqt va xohish kerak, chunki o'rganish uchun motivatsiya bo'lmasa, hech qanday natija bo'lmaydi. Hamma talabalar ingliz tili nima uchun kerakligini tushunishmaydi. Ko'pincha texnik mahsulotlar o'byektlarga o'zbek tiliga tarjima qilinmasdan keladi: uskunalarini ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar, turli mexanizmlar va dvigatellarning tavsiflari, texnik xususiyatlar bularga misol bo'ladi. Bundan tashqari, chet ellik hamkasblar bilan hamkorlik qilish uchun ingliz tili kerak bo'ladi[6]. Ingliz tili talabalar uchun xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish va boshqa mamlakat investorlari bilan muloqot qilish va tajriba almashish uchun foydali bo'lishi mumkin. Ingliz tilini o'rganish nafaqat filologiya yo'nalishida balki texnika yo'nalishida ham turli qiyinchiliklarga duch keladi. YUrtimizning sanoatlashgan erlarida chet tilini o'rganish muhim omil hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati nafaqat mamlakatimiz uchun, balki xalqaro korxonalar uchun ham juda muhim, chunki ular xom ashyo qazib olish uchun zarur bo'lgan qayta ishlash zavodlarini qurishda hamkorlik qiladilar. Binobarin, ushbu loyiha kon nazoratchilarini teskari burilish yordamida yig'ish jarayonini nazorat qiluvchi xorijiy ishchilar bilan o'zaro muloqot qilishga o'rgatishga qaratilgan.

Er osti boyliklarini qazib olish – O'zbekistonning eng muhim iqtisodiy ustunlaridan biri. Mineralni qazib olish uchun tog'-kon kompaniyalari turli bosqichlardan o'tadi. Qisqasi, ular ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun malakali kadrlarni yollashdan boshlaydi; ikkinchidan, ular ma'danni ma'dan qazib olish va konsentratsiyalash, keyin uni maydalash va boshqa jarayonlar qatorida, kondan material olish imkoniyatiga ega bo'lishadi va nihoyat, yig'ilgan xom ashyoni har xil qayta ishlash zavodlariga etkazib berishadi. Mineralni qayta ishlash zavodlari qurilishidan boshlanadi. Xalqaro kompaniyalar - tegirmon va maydalagichlardan sotib olingan mashinalarni yig'ish mas'uliyati bu mashinalarga misol - to'liq o'zbek kompaniyasida ishlaydigan muhandislarga yuklatilgan. Bundan tashqari, etkazib beruvchilar nazoratchilarni mijozning zavodiga yuboradilar fabrikalar qo'lda bo'lmasin, yig'ish jarayonini nazorat qiladilar. Qayta ishlash zavodlarini yig'ish paytida, ehtimol, qurilish kompaniyasi xodimlari ishi davomida tekshiruvlar o'tkaziladi[7]. Bunday tekshiruvlar xorijiy supervayzerlar tomonidan amalga oshiriladi, bu esa etkazib beruvchining nazoratchisi, o'zbek muhandislari va ustalari va boshqa ishchilar o'rtasida o'zaro muloqot qilish imkoniyatini ochadi. Milliy ishchining ingliz tilini bilmasligi tufayli bu qismlarning o'zaro ta'siri ko'pincha noto'g'ri tushuniladi. Xo'sh, nima uchun bu loyiha O'zbekiston kon sanoati muhandislari va ustalari uchun muhim? Aynan, chunki chet ellik rahbar bilan o'zbek muhandislari va ustalari o'rtasidagi til to'sig'i muloqotni samarasiz qiladi; shuning uchun protsedura yoki ishning o'zi qiyinlashadi. SHu bois davlatimiz rivoji uchun bunday vaziyatlarni inobatga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotini barcha javhalarini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan yangi bir muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligining, o'z qobiliyatini, individualligini, shaxsiy fazilat hamda hislatlarini bilgan holda mehnatni oqilona, ilmiy asosda tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat yuritishga qaratilgan. CHet tilini o'rganishda sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar ishlab chiqarishdagi mutaxassis bo'lmagan yo'nalishlar uchun texnik atamalardan foydalanish usullari va qiyinchiliklari berilgan[8]. O'z ishida mutaxassislar uchun texnik atamalarni o'rganish va ishlashning turli usullari mavjud[9]. O'rta maktabda ta'limda texnik atamalarni ingliz tilida o'qitish tizimini ko'rib chiqishning alohida jihati hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi ham shundan iboratki nofilologik bo'lgan Oliy ta'lim muassasalarida mana shunday chet tilini yaxshi o'zlashtirgan etuk mutaxassislarini etishtirishda ingliz tili o'qituvchilarining ta'lim berish jarayonida turli qiyinchiliklari mavjud. Tayyorlangan dars rejasidagi mavzularga o'rta ma'lumot bilan kelgan talabalarining bilim darajasi etarli emasligi, texnika oliy o'quv yurtlarida inglizcha-o'zbekcha adabiyotlarning etarlicha mavjud emasligi, ushbu ilmiy ishni tayyorlashga turki bo'ldi. Zero, yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan usuvor vazifalar nafaqat ta'limning rivojlanishi, balki, taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab beradigan fan-ta'lim-ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishning zamonaviy dasturi sifatida ham e'tirof etish mumkin. Ushbu dasturning hayotga tadbir etilishi esa istiqbolda har bir oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot

muassasalarida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning aniq mexanizmlari yaratilishiga, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarishga qo'llash samaradorligi ortishiga xizmat qiladi[10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3153-son qarori "Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ma'lumot muayyan darajada xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. To'ldirilgan 2-nashri. - T., O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2000. - 86 b.
2. Mirziyoyev SH.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. - T., «Ma'naviyat» nashriyoti, 2017. - 416 b.
3. Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 930-son qarori, I-ILOVA
4. Zamonaviy ta'lim( ilmiy-ommabop jurnal) №12 ,2021.ISSN2181-6516/www.ITM.uz. 30 bet.
5. Эрофеева В.А. Вопросы формирования компетентности будущих менеджеров на уроках английского языка в техническом ВУЗе // Современные гуманитарные исследования. М., 2009. С. 197–198.
6. Zamonaviy ta'lim( ilmiy-ommabop jurnal) №5,2020.ISSN2181-6516/www.ITM.uz. 23 bet.
7. Zamonaviy ta'lim( ilmiy-ommabop jurnal) №5,2020.ISSN2181-6516/www.ITM.uz. 25 bet.
8. The lexical approach: the state of EFL and a way forward-Hove: Language teaching publications. 1993.99p.
9. Wills D. Grammar and lexis some pedagogical implications.-London. Routledge. 1993
10. Zamonaviy ta'lim( ilmiy-ommabop jurnal) №7,2020.ISSN2181-6516/www.ITM.uz. 26 bet.